XALQ DEPUTATLARI MINGBULOQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 21-fevral VII-5-22-6-81-K/25 Mingbuloq tumani

Mingbuloq tumanidagi geografik obyektlarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 20-yanvardagi 34-son qarori, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligining 2024-yil 5-dekabrdagi 05-19-01-5666-sonli “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarini davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha ekspert komissiyasining yig‘ilish bayoni” hamda “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarining qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi ekspert xulosasi taklifini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari Mingbuloq tuman Kengashi

QAROR QILADI :

1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligining 2024-yil 5-dekabrdagi 05-19-01-5666-sonli “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarini davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha ekspert komissiyasining yig‘ilish bayoni” hamda “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarining qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi ekspert xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi “Qo‘riqobod” mahalla fuqarolari yig‘ini 27/7 kollektoridagi “Andijon” ko‘chasining nomini “Sohilbo‘yi” nomiga hamda “Qorashahar” MFY hududidagi “Sohil” ko‘chasi nomini “Sirdaryobo‘yi” nomiga o‘zgartirish taklifi berilgan nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (J.Otaboyev), tuman kadastr agentligi (I.Nurmatov), tuman qurilish bo‘limi boshlig‘i (A.Xydoyberdiyev) boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda nomlari ilovada ko‘rsatilgan 2 ta geografik obyektlarni belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsinlar.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi  MANSUROV AXROR AXMADALIYEVICH

Xalq deputatlari Mingbuloq tumani
Kengashining
2025-yil 21-fevraldagi
VII-5-22-6-81-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Yangi nom berilayotgan va nomi o‘zgargan obyektlar

RO‘YXATI

T/r	Geografik obyekt turi	Joylashgan manzil (M.F.Y. va ko‘cha)	Hozirgi nomi	Tavsiya etilgan nom	Izoh
1	Ko‘cha	“Qo‘riqobod” MFY	Andijon	Sohil	**Sohilbo‘yi - “**Geografik obyektlar nomlanishining o‘zbek tilida yozilishi” qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2	Ko‘cha	“Qorashahar” MFY	Sohil	Sirdaryobo‘yi	**Sirdaryobo‘yi -** “Geografik obyektlar nomlanishining o‘zbek tilida yozilishi” qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.